

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№5

2025
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

*Elektron nashr,
765 sahifa, may, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modelashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
“Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati”ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: “Tadbirkor va ishbiarmon” MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



BUXORO SHAHRINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SHAHAR INFRATUZILMASINI YARATISH METODLARI

Xasanov Feruz Anvarovich
BDTU doktorant PhD

Reyimbayev Shuxrat Sadullayevich
TAQU dotsenti,
Ilmiy tadqiqot ishlar boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya: Buxoro viloyatidagi shahar va tumanlarining shaharsozlik va ijtimoiy-iqtisodiy, xalq xo'jaligi, sanoat salohiyati, ishchi resurslari, tabiiy-ekologik muhiti hamda aholining o'sish kabi ko'rsatkichlarini rivojlantirish bo'yicha hududlar bosh rejalari asosida misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Urbanizatsiya, bosh reja, aholi punkti, shaharsozlik va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar.

Abstract: Examples are given on the basis of the regions' master plans for the development of urban and socio-economic, national economy, industrial potential, labor resources, natural and environmental conditions of cities and districts of the Bukhara region, as well as population growth.

Keywords: Urbanization, master plan, demographic policy, urban planning and socio-economic issues.

Аннотация: Примеры приведены на основе генеральных планов регионов по развитию городского и социально-экономического, народного хозяйства, промышленного потенциала, трудовых ресурсов, природной и экологической обстановки городов и районов Бухарской области, а также росту численности населения.

Ключевые слова: Урбанизация, генеральный план, демографическая политика, городское планирование и социально-экономические вопросы.

KIRISH

Buxoro shahri o'zining boy tarixi, madaniy merosi va turizm salohiyati bilan O'zbekistonning muhim markazlaridan biri hisoblanadi. Shaharning jadal rivojlanishi va aholi sonining o'sishi shahar infratuzilmasini takomillashtirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalarini dolzarb qilmoqda.

Ushbu tadqiqot Buxoro shahrining barqaror rivojlanishida shahar infratuzilmasini yaratishning zamonaviy metodlarini o'rganishga qaratilgan. Bunda xalqaro tajriba, mahalliy sharoitlar va resurslar inobatga olinib, shaharning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta'minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan

strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020–yil 27–noyabrdagi PF–6119–son Farmonining 2–bandida¹, 2025–yilga borib shaharlarning barchasini va shahar posyolkalarining 25 foizini bosh rejalar bilan qamrab olishga erishish belgilangan.

Bugungi kunda Buxoro viloyatida bosh reja asosida 11 ta shahar, 68 ta shaharcha (posyolka) hamda 544 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud:


Shaharlarning 11 tasi, jumladan: Buxoro sh. (65 ta MFY), Kogon sh. (22 ta MFY), Gazli sh. (3 ta MFY), Qorovulbozor sh. (2 ta MFY) va tuman markazlari – Olot t. (6 ta MFY), Qorako'l t. (8 ta MFY), Buxoro t. (5 ta MFY), Romitan t. (6 ta MFY), Vobkent t. (8 ta MFY), Shofirkon t. (4 ta MFY), G'ijduvon t. (24 ta MFY) bosh rejalari 100 % ga ta'minlangan.

68 ta shahar posyolkalarining 5 tasi: Rabotak, Dexcha, Yangibozor, Gajdumak, Jondor — bosh rejalari 7,3 % ga ta'minlangan.

Qolgan mahalla fuqarolar yig'inlarining 17 tasi: Yangi Turmush, Turkon, Halvogaron, Xo'jarabot, Sariosiyo, Rozmoz, Oydin, Jamiyat, Dalmunobod, Siyozpoyon, Nurafshon, Yosh Botir, Asajam, Usmonshayx, Chibog'oni, Xurram, Quchoq — bosh rejalari 3,1 % ga ta'minlangan.


Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 21–sentyabrdagi PQ-794–sonli qarorining ²ijrosi yuzasidan, 2021–yilda quyidagi 4 ta bosh reja ishlab chiqilgan:

Peshku tumani Yangibozor shaharchasining bosh rejasi va batafsil rejalashtirish loyihasi.



Kogon shahrining bosh rejasi (korrekturasi) hamda chegara loyihasi.

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.11.2020 yildagi PF-6119-son <https://lex.uz/uz/docs/-5130468>
2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 17.12.2020 yildagi 794-son <https://lex.uz/docs/-5179198>



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz>

G'ijduvon tumani G'ijduvon shahrining bosh rejasi (korrekturasi) hamda 300 gektardan iborat markaziy qismi bo'yicha batafsil rejalashtirish loyihalarining shaharsozlik hujjatlari "UzshaharsozlikLITI" DUK va uning filiallari tomonidan ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda rejalashtirilgan ishlar 100 % ga bajarilgan bo'lib, to'lovlar jadval asosida amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PQ-3502-sonli qarorining³ "Davlat dasturi doirasida" ijrosi yuzasidan 2022-yilda 2 ta:

Qorako'l tumani "Sayyod" hamda Kogon tumani "Sarayonobod" shaharchalarining bosh rejalari bo'yicha shaharsozlik hujjatlari ishlab chiqilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-iyuldagi 639-sonli qarori⁴ bilan tasdiqlangan dastur ijrosi yuzasidan:

2020-yilda 9 ta:

Buxoro tumanida "Yangi Turmush" va "Turkon", Vobkent tumanida "Halvogaron", "Xo'jarabot", "Sariosiyo" va "Rozmoz", Jondor tumanida "Oydin", "Jamiyat" va "Dalmunobod" mahalla fuqarolar yig'inlari hamda yondosh mahalla fuqarolar yig'inlarining shaharsozlik hujjatlari "Qishloqqurilishloyiha" MChJ Buxoro filiali tomonidan ishlab chiqildi.

2021-yilda 8 ta:

Kogon tumanida "Siyozpoyon" va "Nurafshon", Olot tumanida "Yosh Botir", "Asajam" va "Usmonshayx", Peshko' tumani "Chibogoni", "Xurram" va "Quchoq" mahalla fuqarolar yig'inlari hamda yondosh mahalla fuqarolar yig'inlarining shaharsozlik hujjatlari "Qishloqqurilishloyiha" MChJ Buxoro filiali tomonidan ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda rejalashtirilgan ishlar 100 % ga bajarilgan bo'lib, to'lovlar jadval asosida amalga oshirilgan.

2022-yilda 12 ta:

Shofirkon tumani — "Denov", "Navbahor", "Qayrag'och", "Nekkishi" va "Pattaxon" mahalla fuqarolar yig'inlari;

Qorako'l tumani — "Kuyi Yangibozor" va "Arna" mahalla fuqarolar yig'inlari;

Qorovulbozor tumani — "Navbahor" mahalla fuqarolar yig'ini;

G'ijduvon tumani — "Soktari", "Mirakon", "Tarxanon" va "Saidkent" mahalla fuqarolar yig'inlari hamda yondosh mahalla fuqarolar yig'inlarining shaharsozlik hujjatlari ishlab chiqilishi belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tarixiy manbalar asosida tahlil, kuzatuv va ilmiy abstraktsiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro viloyatida 2022–2026-yillarda shaharlar va shahar posyolkalarining bosh rejasi hamda batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish dasturiga asosan, 63 ta shahar va shahar posyolkalarining bosh rejasi hamda batafsil rejalashtirish loyihalari ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

Bu esa, hozirda viloyatda bosh reja bilan ta'minlanganlikning 21 % ini tashkil qiladi. Keyingi 5 yilda shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish uchun 91,4 mlrd so'm mablag' ajratilib, bosh reja bilan ta'minlanganlik 100 % ga yetkazilishi ko'zda tutilgan.

Buxoro viloyatida 2022–2026-yillarda mahalla fuqarolar yig'inlari hududlarining bosh reja loyihalarini ishlab chiqish bilan bir vaqtda, qishloq (ovul) aholi punktlarining batafsil rejalashtirish loyihalari hamda yondosh mahallalarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalarini ishlab chiqish dasturiga asosan 150 ta mahalla fuqarolar yig'inlari hududining bosh reja loyihalari ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

Bu esa, hozirda viloyatda mahalla fuqarolar yig'inlarining bosh reja bilan ta'minlanganligi 3,2 % ni tashkil qiladi. Keyingi 5 yilda shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish uchun 162,3 mlrd so'm mablag' ajratilib, bosh reja bilan ta'minlanganlik 55 % ga yetkazilishi rejalashtirilgan.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 02.02.2018 yildagi PQ-3502-son <https://lex.uz/ru/docs/-3546749?ONDATE=31.07.2018>

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.07.2019 yildagi 639-son <https://lex.uz/ru/docs/-4456447>



Bosh rejalarni ishlab chiqishda loyihachilarga mahalla fuqarolar yig'inlarining bugungi kundagi iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy va ishlab chiqarish salohiyatlari, shuningdek, aholining o'sish sur'atlari kabi ko'rsatkichlari o'rganib chiqilib, barcha sohalardagi ko'rsatkichlarni hukumat topshiriqlari, davlat dasturlarida belgilangan va shaharsozlik nuqtai nazaridan me'yoriy talablarga moslashtirish vazifasi qo'yilgan.

Mahalla bosh rejasining dolzarbligi keyingi yillarda respublikada yuz bergan keskin ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, shaharsozlik sohasida turar joylar va ijtimoiy-maishiy obyektlar qurilishini rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmalarini yangilashni hisobga olgan holda rejalashtirishning siyosiy shartlari bilan asoslanadi.

Bosh reja loyihasini ishlab chiqishdan maqsad — aholi punkti hududini aniq funksional hududlarga ajratish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, aholini uy-joy va boshqa infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanganlik darajasini me'yoriy talablarga moslashtirish, hududdagi aholi uchun xizmat ko'rsatish tizimini qulaylashtirish, zararli sanoat va ishlab chiqarish korxonalarini shahar hududidan chiqarib, ularning o'rniga zamon talablari darajasidagi ekologik toza ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni joylashtirish orqali atrof-muhitni tozalashdan iborat.

Bosh rejaning asosiy yechimlari — mahalla fuqarolar yig'inlari hududini ixcham, har tomonlama qulay aholi punktiga aylantirish maqsadida loyihachilar tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Mahalla fuqarolar yig'inlari hududining barcha tizimlarini mujassam tarzda shakllantirib, ularning o'zaro qulay bog'liqligini ta'minlash.

Uy-joy hududlarini tartibga solish, yakka tartibdagi turar-joylarni ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlari bilan tizimli bog'lash.

Funksional hududlashtirishda aniqlik va qulaylikka erishish.

Funksional hududlarda xizmat ko'rsatish obyektlarini qulay tarzda joylashtirish va ular orasidagi piyodalar yo'laklari hamda avtotransport yo'llarining bog'liqligini shakllantirish.

Mavjud hududlarni yangi shakllantirilayotgan hududlar bilan bog'lashda aholi uchun kam xarajatli yo'llarni aniqlash, ushbu hududlarning bir xil rivojlanishini ta'minlash, hududlar o'rtasidagi tafovutni qisqartirish va ularni o'zaro uyg'unlashtirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi ishlab chiqilgan bosh rejalar va batafsil rejalashtirish loyihalari O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi hamda amaldagi shaharsozlik norma va qoidalari talablari asosida, Buxoro viloyati Qurilish bosh boshqarmasining buyurtma xati hamda bosh loyiha mualliflari bilan ikki tomonlama tuzilgan shartnoma va loyiha topshirig'i asosida ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 45–46–bandlariga asosan, aholi punktlarining ishlab chiqilgan bosh reja va batafsil rejalashtirish loyihalari Xalq deputatlari viloyat kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ismuhamedova, D.U. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasini. – Toshkent: 2009.
2. Tursunov, X.K. Qishloq aholi punktlarini rejalashtirish. – Toshkent: 2015.
3. Po'latov, X. Shaharsozlik tarixi. – Toshkent: 2008.
4. Mirzayev, Sh., Xasanov, F.A. Buxoro turar-joy me'morchiligi an'analari. – pp. 488–492. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6570415>
5. Web of Journals. Maqola. URL: <https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/1123>
6. Zenodo Maqola. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6570419>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100